





PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

1(18)
2025



- 4 *Babayeva Shoir*a Boymurodovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva Mashhura Muzaffarovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Atabayeva Nargis Batirovna, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Xol Jumayevich, pedagogika fanlari doktori, professor
Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Farmonova Shabon Muhamadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Rajabov To'xtasin Ibodovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Qilichov Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori (DSc)
Abdullayev Mehridin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Qodirov Rashid Hamidovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Toshtemirov Oybek Abidovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Axadov Ma'murjon Sharipovich, pedagogika fanlari doktori (DSc)
Ma'murov Bahodir Baxshulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jumayev Rustam G'aniyevich, Siyosatshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Jo'rayev Akmal Razzoqovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Shadiyeva Nigora Sharipovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Hayitov Hamza Axmadovich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Nazarov Mustaqim Rashidovich, texnika fanlari nozodi, dotsent
Jamilov Yusuf Yunus o'g'li, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Uzoqov Asliddin Mexritdinovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Murtazoyev Azizbek Nusrat o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ergashev Jahongir Yunus o'g'li, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Murodov Sherzod Normonovich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Muxtorov Erkin Mustafoyevich, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Po'lotova Yulduz Asadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ashurova Marhabo Sayfulloyevna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Omonova Dildora Nekmurodovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Adizova Nigora Baxtiyorovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
*Raupov Soh*ib Saidovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Baxtiyor Nazarboyevich Rizayev, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Umurov Zarif Latifboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sirojov Ochil Sirojovich, tarix fanlari nomzodi, professor

MUNDARIJA

TARIX 8

Klichev Oybek Abdurasuovich. 1898-yilgi Andijon qo'zg'oloniga bo'lgan munosabat: qarash va talqinlar.....	8
Abdullayeva Dilduza Abduljalilovna. Savdo majmualari – toqlardagi qayta tiklash va ta'mirlash amaliyoti tarixi	12
Islomova Sarvinoz Jasur qizi. Rim va German elementlari sintezi: Angliya yer egaligi jamiyati shakllanishiga ta'siri	16
Astanova Nasiba Qudratovna. Amir Temur va Xitoy munosabatlarida tibet va buddaviylikning o'rni va roli.....	20
Amonkeldi Axmadov. Buxoro adabiy muhiti tarixining qisqacha bayoni.....	25
Utayeva Feruza Xolmamatovna. Yengil sanoat tarmog'i bo'lgan to'qimachilik sanoati tarixi	29
Shodiyeva Shahlo Soliyevna. Buxoro amirligining tashqi aloqalarida Angliyadan uzoqlashish siyosati	35

FILOLOGIYA 41

To'xsanov Qahramon Rahimboyevich. "Masnaviyi ma'naviy"ning mavzular mundarijasi va tuzilishi.....	41
Бабаева Шоира Баймурадовна, Хусейнова Асал Алишеровна. Особенности репрезентации лексической синонимии в художественном произведении (на материале произведений В. Распутина и В. Астафьева)	48
Adizova Nodira Baxtiyorovna. Ona tili darslarida kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish.....	53

PEDAGOGIKA..... 58

Rasulova Zilola Durdimurotovna. Muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanib talabalarining o'quv-biliv faoliyatlarini rivojlantirish	58
Hamdamova Nozima Muqimovna. Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	65
Farmonova Shabon Muxamadovna. Kvalitologik yondashuv asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish va o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish.....	70
Davronova Shaxlo Farmonovna. Oliy ta'lim muassasalari pedagog-kadrlarida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari	79
Odinayeva Zebiniso Ibroximovna. Gumanitar xavfsizlik davrida aksiologik mexanizmlarni shakllantirishning falsafiy-metodologik asoslari	82
Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich. Ona tili ta'limiga zamonaviy yondashuv: kognitiv-pragmatik usul	89
Матниязова Азиза Бахтияровна. Педагогическая модель развития проектных компетенций будущих учителей русского языка	93
Barno Ergasheva Ziyavitdin qizi. Bo'lajak tarbiyachilarda transversal-metodik kompetentsiyani rivojlantirishning omillari.....	96
Uzoqboyev Xojiakbar Qobiljon o'g'li. Tarixiy yondashuvda ko'rgazmali materiallardan foydalanishning samaradorligi	99
Sharipova Hakima Shavkatovna. O'quvchilarda kreativ fikrlash va kompetentlikni rivojlantirishda ilg'or tajribalarning o'rni	102
Abduljalilova Ruxsora Nodirbek qizi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish usullari	106

6	Asatova Barfiya Faxridinovna. The role of teachers in organizing extracurricular activities in primary grades.....	111
	Matyakubova Nuriya Azimbayevna. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini pirls xalqaro baholash sinovlariga asoslangan o'qish savodligini baholashda discovery learning modeli misolida	115
	Jamolova Lubat Ilhomovna. Ahmad Donish ma'rifiy-axloqiy qarashlarini o'rganishning amaliy-pedagogik asoslari.....	122
	Saidmuratova Malohat Baxtiyarovna. O'quvchilarning o'qishga qiziqish masalasini zamonaviy tadqiqotlardagi tahlili.....	127
	Ergashmirzayeva Madina Islomjon Qizi. Developing the understanding of eco-tourism in primary education.....	132
	Baxtiyorova Durdona Ixtiyorovna. Google assistant yordamida til o'rganishning innovatsion usullari.....	136
	Azimov Sanjar Samadovich. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarni o'qitishda kompyuter grafikasining o'rni	141
	Husenova Aziza Sharipovna, Mardonova Ismigul Dilshod qizi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda raqamli texnologiyalar va innovatsion ta'lim usullari.....	145
	Ma'murjon Sharipovich Ahadov, Kalabayeva Marina Asqar qizi. 7-9-sinf kimyo darsliklaridagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash metodikasini takomillashitish	149
	Akramova Surayyo Renatovna, Nabiyeva Mohinur Zokirjon qizi. Fe'l turkumiga xos so'zlarning uslubiy xususiyatlarini o'rgatishning nazariy asoslari	153
	Sanobar Abdullayeva Ibadullayevna. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasb etikasi, axloqiy qadriyatlar va kasbiy mas'uliyatni shakllantirish mexanizmlari.....	157
	Olimov Temir Hasanovich. Ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanuvchilarda mavzu dolzarbligini asoslashning tasdiqlash usulidan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.....	166
	Vaxabova Gulshan Vafaqul qizi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik tarbiyaning ahamiyati	171
	Vapoyeva Ra'no Raximberganovna. Autizm tashxisli bolalar bilan olib boriladigan reabilitatsion usullar	175
	Doniyorova Shoxista Shodiyarovna. Oliy ta'lim muassasalari xalqarolashuv jarayonlarini strategiyasini rivojlantirish yo'llari	179
	Yakubova Zilola Zikirovna. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijtimoiy kompetensiyalarini milliy tarbiya asosida shakllantirishning mazmun va mohiyati	187
	Oskinbayeva Gulziyba Davletbayevna. Motivatsion soha shaxs o'zini o'zi rivojlantirishni ta'minlovchi omil sifatida	191
	Yulduz Asadovna Po'lotova. Boshlang'ich sinf ona tili darslari integratsiyasini ta'minlash metodikasi	195
	Marhabo Sayfulloyevna Ashurova. Buxoro jadidlari asarlarida ta'lim va tarbiyaga oid masalalarning ifodalanishi.....	200
	Raximova Intizor Rustamovna. O'qish darslarida didaktik o'yinlardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari.....	206
	Kurbanova Zarifa Bokijanovna. Mustaqil ta'limda bilish faoliyati motivatsiyasining ahamiyati	210
	Yo'ldoshev Mirzobek Nurilloevich. Texnika oliy ta'lim muassasalarida ixtisoslik fanlarini o'qitish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish	214
	Dilshod Mamatov. Fazoviy geometrik obrazlar vositasida o'quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish va uning psixologik asoslari	219
	Shonazar G'aybullayev. Maktabni innovatsion boshqarish tizimi	225
	Rajabov To'xtasin Ibodovich. Yurt qayg'usi bilan yashagan fayzulla xo'ja.....	228

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stenton, F. M. *Anglo-Saxon England*. (Oxford University Press, 1971) - 345 p.
From 'A History of the British Nation' by AD Innes, 1912. TC & EC Jack - 280 p.
2. T. O'. Salimov Jahon tarixi (Yevropa mamlakatlari V – XV asrlarda Universitet Toshkent – 2014. - 296 b
3. Asser; Life of King Alfred; trans Cook, Albert, S; Ginn and Co, Boston, 1905. - 403 p.
4. Burton, Janet; Monastic and Religious Orders in England 1000 – 1300; Cambridge 1994. - 266 p.
5. В.Ф.емёнов. Ўрта асрлар тарихи. -Тошкент: Ўқитувчи, 1978. -С. 645.
- Bede; Bede's Ecclesiastical History of England; trans Sellar A. M.; George Bell and Son, 1907. - 140 p
6. Sh. Ergashev "Jahon tarixi, yangi davr 1- qism" "O'zbekiston" Toshkent – 2013. - 514 b.
7. Vinogradoff, Sir Paul; The Growth of the Manor; George Allen and Unwin; London: 1920. -448 p
8. Pestell, Tim; Landscapes of Monastic Foundation, The Establishment of Religious Houses in East Anglia c. 650 – 1200; The Boydell Press, 2004. - 215 p.
9. Tait, James; The Medieval English Borough; Manchester University Press; Manchester, 1936. -180 p.
10. Goodwyn, Charles Wycliffe; The Legend of Saint Guthlac; John Russel Smith, London, 1848. - 150 p.
11. Lemanski, S. Jay; The Rectitudines Singularum Personarum: Anglo-Saxon Landscapes In Transition; A Thesis Presented to The Graduate Faculty of the University of Akron; August, 2005. - 621 p.
12. Maitland F. W.; Domesday Book and Beyond, Three Essays in the Early History of England; Cambridge University Press, 1907. - 128 p.
13. Martin, G and Williams, A (translators); Domesday Book, A Complete Translation; Penguin Classics, 2004. - 220 p.
14. Mayr-Harding, Henry; The Coming of Christianity to Anglo-Saxon England; B. T. Batsford, London 1972. -349 p
15. Sawyer, P.H; Anglo-Saxon Charters: an Annotated List and Bibliography. London, 1968. -98 p
16. Stenton, Frank; Anglo-Saxon England; Oxford University Press; Oxford; 1971. - 346 p
17. Stenton, Frank; The thriving of the Anglo-Saxon Ceorl, in Preparatory to Anglo-Saxon England: Being the collected papers of F. M. Stenton. - 185 p
18. Vinogradoff, Sir Paul; The Growth of the Manor; George Allen and Unwin; London: 1920. - 405 p
19. Виноградов П. Г. Исследования по социальной истории Англии в средние века. - Спб., 1887. -238 с
20. Гуревич А. Я. Мелкие вотчинники в Англии раннего средневековья / Известия АН СССР, серия истории и философии. - Т. VII. - №6. - М., 1951. - 405 с
21. Соколова М. Н. Возникновение феодального землевладения и класса феодалов в Англии в VII - X вв. - СВ. - вып. XII. - М., 1958. -289 с
22. Соколова М. Н. Поместье в Англии до нормандского завоевания. - СВ. - вып. 31 - 32. - М., 1969 - 1971. -220 с

Orziyev Mahmud ZayniyevichBuxoro davlat universiteti
arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası
dotsenti, tarix fanlari falsafa doktori (PhD)**Astanova Nasiba Qudratovna**Buxoro davlat universiteti arxeologiya va
Buxoro tarixi kafedrası I bosqich
magistranti**AMIR TEMUR VA XITOIY MUNOSABATLARIDA TIBET VA BUDDAVIYLIKNING
O'RNI VA ROLI**

Annotatsiya: Tibet dunyoning eng baland tog'laridan biri bo'lib, Himolay tog'idan keyingi o'rinda turadi. Shu bilan birga Markaziy Osiyoda yirik hududni egallagan va asosan sovuq iqlimli mintaq bo'lsada, tog'lar orasidagi tor vodiylarda qisqa yoz mavsumida o't-o'lanlarning o'sishi va qisman dukkakli ekinlar ekib dehqonchilik qilish mumkin bo'lgan hududlar qadimdan insonlarni bu o'lkada yashashi uchun imkon bo'lib hisoblangan. Iqlimiy va xo'jalik nuqtai-nazaridan qiyinchiliklar bo'lishiga qaramay Tibetda davlat va jamiyat ham erta vujudga kelgan va rivojlangan. Shu bilan bir qatorda Tibetda davlat kuchaygan vaqtlarda qo'shni mintaq va xalqlar bilan savdo-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar o'rnatilgan. Jumladan, O'rta Osiyo mintaqasida yashagan xalqlar va davlatlar bilan ham qadimdan aloqalar mavjud bo'lib, uning eng rivojlangan qismi bu Amir Temur va temuriylar davri bo'lgan deb hisoblash mumkin. Bu davrda iqtisodiy aloqalardan tashqari mingratsion jarayonlar ham sodir bo'lgan bo'lib, Tibet solorlarining ko'chib borib o'rnatilib qolishi ham shu davrga to'g'ri keladi. Ammo, keyingi davrlarda Tibetning O'rta Osiyo bilan aloqalari sekin-asta yo'qolib borgan. Chunki, tarixiy manba va adabiyotlar bu xususda ma'lumotlar keltirib o'tmagan.

Kalit so'zlar: Islom, buddaviylik, karmapa, gelugpa, qora shapkalilar, diniy bag'rikenglik, hokimiyat, sulola, elchi, ziddiyat, ruhoni, yilnoma

Аннотация: Тибет - одна из самых высоких гор в мире, уступающая только Гималаям. В то же время, хотя Центральная Азия и является крупным регионом с преимущественно холодным климатом, узкие долины между горами, где в течение короткого летнего сезона растут травы и где можно выращивать сельскохозяйственные культуры, в том числе бобовые, издавна считались возможностью для проживания людей в этом регионе. Несмотря на трудности климатического и экономического характера, государство и общество в Тибете возникли и развились рано. В то же время в период укрепления государственности в Тибете налаживались торгово-экономические, политические и культурные связи с соседними регионами и народами. В частности, существовали древние контакты с народами и государствами, населявшими Среднеазиатский регион, наиболее развитыми из которых можно считать период правления Амира Темура и Тимуридов. Помимо экономических связей, в этот период происходили и миграционные процессы, а также миграция и расселение тибетских монахов. Однако в более поздние периоды связи Тибета с Центральной Азией постепенно прекратились. Потому что исторические источники и литература не содержат информации по этому вопросу.

Ключевые слова: ислам, буддизм, Кармана, Гелугпа, Черные шляпы, религиозная терпимость, власть, династия, посол, конфликт, священник, хроника.

Abstract: Tibet is one of the highest mountains in the world, second only to the Himalayas. At the same time, although it occupies a large area in Central Asia and is a region with a mainly cold climate, the narrow valleys between the mountains, where grasses grow in the short summer season and partially grow leguminous crops, have long been considered an opportunity for people to live in this country. Despite the difficulties from a climatic and economic point of view, the state and society in Tibet were formed and developed early. At the same time, during the strengthening

of the state in Tibet, trade, economic, political and cultural relations were established with neighboring regions and peoples. In particular, there have been relations with the peoples and states living in the Central Asian region since ancient times, the most developed part of which can be considered the era of Amir Timur and the Timurids. In addition to economic relations, migration processes also took place during this period, and the migration and settlement of Tibetan monks also occurred during this period. However, in later periods, Tibet's ties with Central Asia gradually disappeared. Because historical sources and literature do not provide information on this matter.

Keywords: *Islam, Buddhism, Karmapa, Gelugpa, Black Hats, religious tolerance, power, dynasty, ambassador, conflict, priest, chronicle.*

Kirish. Tibetda davlatning paydo bo'lishi ilk o'rta asrlar davrida sodir bo'lgan bo'lib, uning O'rta Osiyodagi davlatlar va xalqlar bilan munosabati o'sha davrlardayoq boshlangan deb hisoblanadi. Shuningdek, eftaliylar muammosiga bag'ishlangan ayrim asarlarda ularning kelib chiqishi Tibet tog'lari degan ilmiy xulosalarga ham kelingan. Ushbu g'oyaning asosiy tarafdori L.N. Gumilyov bo'lib, Tibet va O'rta Osiyo aloqalari aynan V-VI asrlarda rivojlangan degan xulosalarga kelgan. Amir Temur va temuriylar davrida ham Tibet va Movarounnahr aloqalari kuchaygan davr bo'lib, ushbu maqola shu xususidagi fikr-mulohazalar tarixiy adabiyotlarda keltirilgan fakt va dalillar asosida tahlil qilingan.

Adabiyotlar sharhi. Mazkur mavzuni mazmunan yorituvchi adabiyotlarni biz shartli ravishda uch birinchisi, manbaiy ahamiyatga ega bo'lgan adabiyotlar, shobiq sovet davrida yaratilgan adabiyotlar va postsovet davri tarixiy adabiyotlar guruhga bo'lib o'rgandik. Birinchi guruhga kiruvchi Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida Tibet va Amir Temur va temuriylar davrida olib borilgan elchilik va savdo-iqtisodiy munosabatlarga oid ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ushbu munosabatlarning mantiqiy davomini Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai Sa'dayn va majmai bahrayn" asarida ham ko'rish mumkin.

V.V. Bartoldning Yettisuv tarixidan ocherklar asarida ushbu hududlarda buddaviylik an'analarining saqlanib qolish muammolariga bag'ishlangan bo'lsa, shu muallifning Ulug'bek davriga bag'ishlangan izlanishlarida elchilik va savdo aloqalari ochib berilgan. O'rta Osiyo va Tibet aloqalarining Tibet tarixiy adabiyotlarida yoritilish masalalarini A.I. Vostrikov izlanishlarida keltirilgan. Ye.I. Kichanov va B.N. Melnichenkolarning Tibetning eng qadimgi davrlaridan XX asr o'rtalarigacha bo'lgan tarixiga bag'ishlangan asari umumiy ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Ushbu guruh adabiyotlar sobiq sovet davrida yaratilganligi sababli ularda kommunistik mafkura sezilib turadi.

Postsovet davrida ham mavzuga oid izlanishlarda turli ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, A.Sh. Kadirbayev mo'gullar, xitoyliklar va yevropaliklarning Tibetga kirib kelishi yoritilgan bshlsa, B.U. Kitinov Buddaviylik va oyratlarning Markaziy Osiyodagi faoliyatini tadqiq qilgan. Xuddi shu yo'nalishda D.B. Xalbazikov ham ijod qilgan bo'lib, uning izlanishlarida Xitoy tarixi ham muhim ahamiyat kasb etgan. A.D. Sendina esa Tibet va uning qo'shnilari bilan aloqalarni Tibet yilnomalari asosida tahlil qilganligini ko'rish mumkin.

Natija va mulohazalar. Movarounnahrda mo'g'ullar hukumronligi davrida Islom dinining bir qadar ahamiyati pasayib, shomonlik (qam) dini, xristianlik va buddaviylik dinlarining ta'siri ancha o'sganligini ko'rish mumkin. Mo'g'ul hukumdorlari turli dinlarga e'tiqod qilib, o'z dindoshlarini qo'llab-quvvatlashga harakat qilganliklari haqidagi ma'lumotlarni tarixiy adabiyotlarda ko'plab uchratish mumkin. Vaqt o'tishi bilan Islom diniga e'tiqod qilib, musulmonchilikni qabul qilgan mo'g'ul feodallarining soni oshib borgan. Mo'g'ul xonlarining islom diniga o'tishiga qo'shinning asosiy qismi bo'lgan turk-mo'g'ul qabilalari doim ham xayrixoh bo'lmaganlar. Askariy qismlarning noroziligidan foydalangan taxt uchun da'vogarlar esa bundan unumli foydalanganlar. O'z raqiblarini islom diniga o'tganligi uchun taxtdan tushirish va ularni jismonan mavh etish hollari ham uchrab turardi. Masalan, Chig'atoy ulusi xoni Tarmashirinxon dastlab buddaviylik e'tiqodiga mansub bo'lgan. Uning nomi ham buddaviy e'tiqodga xos "dharma sri" so'zdan olingan edi. Tarmashirin Islomga o'tgach, Alouddin nomini

oladi va bu mo'g'ullar orasida kuchli norozilik keltirib chiqargan. Shu sababli 1334 yilda xonzoda Buzan boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tarilib, Tarmashirin taxtdan ag'darilgan va qatl etilgan. Buzan esa buddaviylik ibodatxonalari tiklanishiga homiylik qilib, bu din vakillariga katta imtiyozlar bergan[1, 76]. Bir so'z bilan aytganda, mo'g'ul hukumdorlari orasida buddaviylik katta ta'mir kuchiga ega bo'lib, ularning islomlashish jarayonlari ancha qiyinchilik bilan sodir bo'lgan.

Umummo'g'ul saltanatida ham buddaviylik kuchli ta'sirga ega bo'lib, bu vaqtda buddaviylikning asosiy markazi Tibet bo'lib qolgan edi. Ammo, buddaviylikning lamaizm oqimi Tibetda hukumron bo'lgani bilan bir qatorda, bir qancha sekta va oqimlarga ham bo'linib ketgan edi. Ushbu oqim va sektalar oliy hokimiyatni egallash uchun qaysidir siyosiy kuchga tayanishga hamisha urinib kelgan. Mo'g'ullar kuch qudrati cho'qqisiga erishgan Hubilayxon davrida ham Tibetdagi diniy sektalarning o'zaro kurashlari to'xtamagan. Hubilayxonning ukasi, Eronda Elxoniylar sulolasiga asos solgan Hulaguxon Brigungpa deb nomlangan sektani qo'llab-quvvatlash orqali Tibetda o'z nazoratini o'rnatishga uringan bo'lsa, Hubilayxon sakya sektasini qo'llab-quvvatlagan. O'zaro kurashlarda Hubilayxon qo'llagan sakya sektasi g'alaba qozongan va 1290 yil brigungpa ibodatxonasi yoqib yuborilgan[13, 127]. Hulaguxonning Tibetdagi diniy kurashlarda ishtiroki Eronda bu din vakillari nufuzi salmoqli degan xulosaga kelish uchun asos bo'ladi.

Ilmiy jamoatchilik orasida buddaviylik dinining ta'siri O'rta Osiyoda IX asrdan boshlab inqirozga uchragan edi, degan fikrlar mavjud. Fikrimizcha, bu mulohaza unchalik to'g'ri emas. Chunki, mo'g'ullarning buddaviylikka keng yo'l ochishidan tashqari Amir Temur va temuriylar davrida ham buddaviylik o'z e'tiqod vakillariga ega edi. Tarixiy adabiyotlarda 1422 va 1428 yillarga, ya'ni temuriy Shohrux Mirzo davriga oid ikkita suyurg'ol hujjati topilganligi, ushbu hujjatlarning birida Maymana hududidagi, ikkinchisida esa Maymanadan Hirot orqali Buxoroga boradigan yo'lda joylashgan buddaviylik ibodatxonalari barcha soliq va majburiyatlardan ozod qilish, shuningdek, buddaviylik ibodatxonalari tegishli bo'lgan yerlarda ov qilishni ta'qiqlash xususida yozilganligi bilan bog'liq fikrlar keltirib o'tilgan[10, 200]. Bundan temuriylar davrida ham buddaviylik jamoalarining mavjud bo'lganligi, ushbu din rivoji uchun barcha imkoniyatlar yaratilganligi, buddaviylik diniga hurmat ko'rsatilganligi, temuriylarning aksariyati Amir Temur izidan borib diniy bag'rikenglik siyosati yuritganligi haqida xulosalarga kelish mumkin.

Amir Temur saltanati va Xitoy (Min) davlati o'rtasida o'zaro ziddiyatlar boshlanib, Min sulolasi vakillari Samarqandga o'lpon to'lash talabi bilan kela boshlagan davrdan Amir Temur Xitoy harbiy yurishini tashkillashtirishga jiddiy tayyorgarlik ko'rgan. Shu maqsadda Xitoy atrofidagi davlatlarni siyosiy va iqtisodiy jihatdan o'rganish ishlari boshlangan bo'lib, bu jarayonlardan Tibet o'lkasi ham chetda qolmagan deb xulosa qilish mumkin. Amir Temur davrida yaratilgan tarixiy manbalarda ham Tibetning bir necha marta tilga olib o'tilishi yuqoridagi fikrlarimizni asoslashga xizmat qiladi. jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida Kashmir viloyatini ta'riflash jarayonida Tubbat (Tibet) xususida ham fikr bildirilganligini keltirib o'tish mumkin[4, 218]. Ammo, Tibet bilan Amir Temur saltanati o'rtasidagi munosabatlarni yorituvchi ma'lumotlar musulmon manbalarida nihoyatda kam va umumiy tushunchalar bilan cheklanganligi bilan xarakterlanadi.

Min sulolasi Tibetda Amir Temurga xayrixoh kuchlarni ustunligiga yo'l qo'ymslikka imkon qadar harakat qilgan. Budda dinining xitoyliklar va mo'g'ullar orasida keng tarqalganligi hisobga olib Tibet ruhoniylarini ham nazoratda tutib turishga uringanlar. Min imperatori Yun Le (Chji-Di) 1402 yilda saroy amaldori Xou Syanni Tibetga elchi qilib jo'natgan. Ungacha ham Xou Syan bir necha bora Hindiston, Hindixitoy davlatlarida, Himolay knyazliklarida bo'lgan diplomatik tajribaga ega bo'lgan mohir siyosatchi bo'lgan. Elchilikning maqsadi Tibetdagi mashhur rohib Shanshi-xalimani Xitoyga taklif etish deb e'lon qilingan. Bu aslida Xitoyga siyosiy raqib bo'lgan mo'g'ul feodallariga ta'sir o'tkazishga bo'lgan urinishlardan biri bo'lgan[5, 122]. Ushbu ruhoniylar buddaviylikda "Qora shapkalilar" sektasi deb nom olgan oqimning yetakchisi bo'lib, uning asl ismi beshinchi qora shapkali lama Karmapa Choypel Zangpo (hindcha. Dharma shrī bhadra [tibetcha. Chos dpal bzang po] 1384-1415 yy.) bo'lgan. Tarixiy adabiyotlarda uning O'rta Osiyo hukumdorlari saroyida ham bo'lganligi qayd etilgan[6, 112]. Demak, buddaviylik

O'rta Osiyoda hali ta'sir kuchiga ega bo'lgan bo'lib, ehtimolki, Amir Temur saroyida ham bu rohibni elchi sifatida kelgan deb hisoblash mumkin.

O'z navbatida Xitoy tomoni ham Amir Temurning muvofaqqiyatlaridan cho'chib, u bilan yaxshi munosabatni o'rnatishga harakat qilgan. Buning asosiy sababi mo'g'ullar bilan ittifoq tuzilishi xavotiri bo'lib, ularning Samarqand hukumdori bilan ittifoqchilikda Xitoyga hujum qilishi mumkinligi tashvishga solgan. Shu sababli Xitoy (Min) hukumati Amir Temurga qarshi bo'lgan kuchlarni qo'llab-quvvatlashga harakat qilgan deb xulosa qilishga barcha asoslar yetarli. Mo'g'ullardan tashqari Min sulolasi uchun Tibet muammosi mavjud bo'lib, Tibet buddaviy rohiblari mo'g'ullarning Yuan sulolasi saroyida katta ta'sir kuchiga ega bo'lganlar. O'z navbatida mo'g'ullar Tibetdagi lamaizm rohiblarini yetarli darajada qo'llab-quvvatlab turganlar. Yuan sulolasi mo'g'ul hukumdorlarining taxtga o'tirish marosimini aynan buddaviy ruhoniylar boshchiligida o'tkazilgan. So'nggi Yuan imperatori To'g'on Temurni 1331 yilda taxtga o'tirish marosimini buddaviylikning lamaizm oqimidan ajralib chiqqan karmapa sektasi yetakchisi Rangdjung Dorje o'tkazgan[8, 73]. Tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlarga asoslanib, qora shapkalilar deb ataladigan karmapa sektasi vakillarining Movarounnahrda ham ta'siri kuchli bo'lgan deb xulosa qilish mumkin. Hatto, Amir Temur vafotidan keyin ham Min sulolasi xavfsizligini ta'minlash maqsadida beshinchi qora shapkali lama Karmapa Choypel Zangpo (1384-1415 yy.) Min saroyiga taklif qilinib (1407 yil), uni Xitoyda faxriy garovdagi shaxs sifatida ushlab qolishga harakat qilingan[6, 112]. Bu rohibning Xitoyga yo'l olishi va tashrifning siyosiy tomonlari yoritilmagan bo'lsada, Tibet yilnomalarida Xitoy saroyigsha diniy marosimlarga bosh bo'lish uchun borganligi keltirib o'tilgan[9, 100]. Ushbu ruhoniyning yashagan yillariga e'tibor qilinadigan bo'lsa, Amir Temur saroyida bo'lgan deb hisoblashga asos bo'ladi. Shu sababli mo'g'ullar Xitoydan quvilgan bo'lsada, Chingizxon saltanati vakillari ta'siri hali kuchli bo'lib, Tibetda garchi Yuan sulolasi qulagandan so'ng dindorlar hokimiyati tugatilib, mahalliy viloyat hokimlarining ta'siri oshgan bo'lsada, Chji Yuanchjan davrida tibetliklarning Xitoy bilan chegaradosh hududlarga bir necha bora bosqin qilganligi tarixiy hujjatlarda qayd etib o'tilgan[12, 71]. Bu vaqtda Tibetda ruhoniylarning hukumronligi tugatilib, dunyoviy feodallar hokimiyat tepasiga kelgan edi. Yangi sulola Pagmodupa oilasi Tibetda hokimiyatni qo'lga olib, Taysitu-Djanchub Chjalsan (1302-1373) hukumronlik qilgan davrda Xitoyga o'lja olish maqsadida bir necha bora hujumlar uyushtirilgan[3, 32]. Shunday bo'lsada, Xitoy Min sulolasi Tibet bilan savdo aloqalarida choy o'rniga ot almashtirar va bu savdoni to'xtat qolishidan xavotirda bo'lgan. Imperator Chji Yuanchjan chegaralarda cha-ke-si ya'ni, choy bilan savdo qilish shaxobchalarini tashkil qilgan[5, 124-125]. Bu shaxobchalar mo'g'ullarga qarshi kurashda eng avvalo Tibetni betaraf turishini va janglarda xitoyliklar qo'shinida yetishmaydigan otlarni sotib olish imkonini bergan. Tibet borasida Amir Temurning ham o'z rejalari bo'lgan deb hisoblashga yetarlicha asoslar mavjud. Ehtimolki, Amir Temur Tibet zaminiga Movarounnahr aholisidan bir qismini borib yashashga va u yerdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlardan o'zini xabardor qilib turishni buyurgandir. Chunki, bugungi kungacha Tibetda turkiylarning solor urug'i vakillari yashab kelayotgan bo'lib, ularning xotirasida o'zlarining Tibetga Samarqanddan Amir Temur davrida kelib qolganliklari bilan bog'liq rivoyat saqlanib qolgan[14]. Bu esa, Tibet va Amir Temur saltanati o'rtasida munosabatlar mavjud bo'lgan deb xulosa qilishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tibet bilan Amir Temurdan keyingi davrda olib borilgan diplomatik munosabatlar Mirzo Ulug'bek hukumronligi davriga tegishli bo'lib, 1421-1422 yil qishini Buxoroda o'tkazayotganda Mirzo Ulug'bek oldiga Tibet va Xitoydan elchilar keladi. Ammo, ushbu elchilarning maqsadi, yo'nalishi xususida manbalarda ma'lumotlar deyarli saqlab qolinmagan[2, 93]. Tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, Min sulolasining dastlabki impertorlarining Tibet buddaviyligiga homiylik va moyilligi davri bu vaqtda tugagan bo'lib, Tibet buddaviylari o'z e'tiborlarini yana shimolga Yuan sulolasi davridagi ittifoqchilari hisoblangan mo'g'ullar, oyratlar qaratishga majbur bo'lganlar[7, 64]. Ehtimol, ushbu jarayonlarda Tibetdagi ko'pdan-ko'p buddaviy sektalar yoki hukumronlik qilish uchun kurash olib borayotgan amaldagi hukumron va asosiy tayanchi Tibetning Uy viloyati bo'lgan Pagmodupa sulolasi yoki Szan o'lkasi asosiy tayanch markaz bo'lgan Rinpunlar sulolasi vakillari yuborgan deb xulosa qilish mumkin.

- 24 Chunki, ruhoniylar tomonidan tuzilgan Tibet yilnomalarida Ulugʻbek saroyiga yuborilgan elchilik xususida maʼlumotlar saqlanib qolinmagan. “Matlai saʼdayn va majmai bahrain” asari maʼlumotlari tahliliga koʻra, elchilar 1421 yil yanvaridan 6 fevralgacha Buxoroda boʻlganlaridan[11, 603] soʻng Xitoy va Tibetga qaytganlar deb, xulosa qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning Xitoy harbiy yurishida Tibet hukumdor doiralari Xitoy pasttekisliklaridan oʻz ulushlarini olish va iqtisodiy jihatdan muhim hududlarni qoʻlga kiritish maqsadida Amir Temur ittifoqchilari boʻlishi mumkin deb hisoblash mumkin. Chunki, Xitoy imperatorlarining Tibetliklar bosqiniga jazo ekspiditsiyalari tashkil etmaganligi, chegarada savdo markazlarini yopmaganligi, buddaviy ruhoniylarni qoʻllab-quvvatlab turganliklari ushbu xulosalarga kelish uchun asos boʻla oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бартольд В. В. Очерк истории Семиречья // Сочинения. Том II, часть 1. – М.: Издательство восточной литературы, 1963. – 1020 с.
2. Бартольд В.В. Улугбек и его время. - Петроград 1918. – 160 с
3. Востриков А.И. Тибетская историческая литература. – М.: Утверждено к печати Институтом народов Азии Академии Наук СССР, 1962. – 426 с.
4. Ёздий, Шарафуддун Али. Зафариома // Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: ААҳмад, Ҳ.Бобобеков; Масъул муҳаррир Б.Эшпўлатов. Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И.Шогуломов ва бошқалар // - Т.: Шарқ, 1997. - 384 б. + 16 илова.
5. Кадырбаев А.Ш.Монголы, китайцы и европейцы в Тибете (1368–1644 гг.) // Вестник Института востоковедения РАН. № 1. – М.: ИВ РАН, 2018. – С. 121-126.
6. Китинов Б.У. Буддийский фактор в политической и этнической истории ойратов (середина XV в. – 1771 г.) // Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. – М.: 2020. – 546 с.
7. Кычанов Е.И., Мельниченко Б.Н. История Тибета с древнейших времен до наших дней / Е.И. Кычанов, Б.Н. Мельниченко. - М.: Вост. лит., 2005. – 351 с.
8. Кычанов Е.И., Савицкий Л.С. Люди и боги страны снегов. Очерк истории Тибета и его культуры. – М.: Наука, 1975. – 328 с.
9. Пагсам-джонсан: История и хронология Тибета/Пер. с тибет. - Новосибирск: Наука. Сиб. отдние, 1991. - 264 с.
10. Ру Ж.-П. Тамерлан / Жан-Поль Ру; пер. с фр. Е. А. Соколова; послесл. В. Л. Егорова; прил. – 4-е изд. – М.: Молодая гвардия, 2007. – 603 с.
11. Самарқандий Абдураззоқ. Матлаи Саъдайн ва мажмаи баҳрайн. К. II. /Абдураззоқ Самарқандий; Форс тилидан тарж., сўзбоши ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев; Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси, Абу Райҳон Беруний номидаги шарқшунослик институти. – Т.: Оʻzbekiston, 2008. – 832 б.
12. Халбазыков Д.В Буддизм в политической культуре Китая эпохи Мин / Д В Халбазыков // Восточное общество Интеграционные и дезинтеграционные факторы в геополитическом пространстве АТР - УланУдэ: Издво БГУ, 2007. - С. 69-72
13. Цендина А.Д. ...и страна зовется Тибетом / А.Д. Цендина. - М.: Вост. лит, 2002. - С. 127. - 304 с.: ил.
14. <https://www.uzanalytics.com/kitob/5879/>